

Turkistonda ilk jadid maktablar shakillanishi va faoliyati

Qarshi davlat universiteti tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Ro‘ziboyeva E‘zoza Davlatboyevna

Annotatsiya

XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Turkistondagi yangi usul maktablarining ochilishi,ularning yaratgan maktablari faoliyati, jadidlar o'zlari chop etgan darsliklari, jadidlarning faol harakatlari va yangi usul maktablarining o'qitish tizimi bosqichlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

Turkiston, jadid, yangi usul, demoktarik harakat, “usuli savtiya”, Ismoil Gaspirali, Fitrat, Behbudiy,Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho'lpon, milliy taraqqiyot usullari.

XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralari ko'rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o'ynadi. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi.

Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi. Jadidchilik Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo'ldi. Ismoilbek Gaspirali 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli «usuli savtiya», ya'ni «yangi usul» nomi bilan shuhrat qozondi. «Jadid» arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni bildiradi. Ismoilbek Gaspirali g'oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari «jadidlar», uning g'oyalari esa «jadidchilik» nomini oldi. Ismoilbek Gasprali darslik yaratadi, o'zining «Tarjimon» (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi.[1] Gasprali 1893 yilda Toshkent,

Samarqand va Buxoroda bo'ldi. Buxoroda amir Abdulahad jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga «Muzaffariya» nomi beriladi. 1898 yilda To'qmoqda (Qirg'iziston) ham shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda SHamsuddin domla, 1901 yilda Qo'qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir SHakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari aloxida e'tiborga molikdir.[2] Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid CHo'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi.

Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Ayrim muallimlar o'zlari darsliklar yozib, shu asosda ta'lim berganlar. Saidrasul Saidazizov "Ustodi avval" (1902), Behbudiy "Risolai asbobi savod" (1904), "Risolai jug'rofiya umroniy" (1905), Munavvarqori "Adibi avval", "Adibi soniy" (1907), Abdulvohid Burhonov "Rahbari xat" (1908), Avloniy "Birinchi muallim" (1910), "Ikkinchi muallim" (1912), Rustambek Yusufbek o'g'li "Ta'limi avval", A.Ibodiyev "Tahsilul alifbo" darsliklarini yozib nashr etishdi.[4]

Yangi usul maktablarda quyidagilarga e'tibor qaratilgan edi:

1. sinfda bolalar 30 dan oshmasligi;
2. 2 marta yoz va qishda bolalarni maktabga qabul qilish;
3. 1 muallimda 3-4 sinf bulishi;
4. dars 5 soatdan oshmasligi, har darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus;
5. juma va bayram kunlari dam olinishi, yozda ta'til bo'lishi;

6. dars zerikarli bo`lmasligi, bolalarni urish, so`kish mumkin emas.[3]

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida jadid bobolarimiz tomonidan ko'rsatilgan jonbozlik xalqning diniy bilim qatorida dunyoviy bilimni ham egallashi, ta'lim tizimining isloh qilinishi, o'g'il-qizlarga birdek dars berilishi uchun va xalqning Turkiston diyoridagi mustamlakachilikdan, erksizlikdan qutulish uchun edi. Bu borada ular juda muvaffaqiyatli ishlar olib borishi, bir qancha maktablar ochildi. Maktablar zamonaviy ta'lim bosqichlariga hamda darsliklarga ega bo'ldi. Agar bu maktablar o'sha davrda Chor Rossiyasi tomonidan taqiq etilmaganda, Turkiston ilmsizlik, qoloqlik botqog'idan ancha oldin xolos bo'lardi. Menimcha, O'zbekiston mustaqillikdan bundan ham erta bahramand bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dolimov. U. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2010 yil, 1-son.
2. Turdiev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar. T.: 2006, 225-bet
3. Sh.G'affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta'lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 2000.
4. O'zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbat materiallari. 1998 yil 9 oktabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998.
5. Mo'minjon Muhammadjonov. Turmush urinishlari. Toshkent, 1926 yil, 277-bet